

УО‘К: 338.242.2

## RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK VA O‘RTA BIZNES BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

**Tursunov Imomnazар Egamberdievich** – iqtisod fanlari nomzodi, professor,  
E-mail: [tursunov-ie64@mail.ru](mailto:tursunov-ie64@mail.ru)

**Насруллаев Феруз Менглиевич** – mustaqil izlanuvchi, E-mail: [innovate407@gmail.com](mailto:innovate407@gmail.com)  
**Bozorov Samar Safarovich** – mustaqil izlanuvchi, E-mail: [bozorovsamar1982@gmail.com](mailto:bozorovsamar1982@gmail.com)

Qarshi mihandislik-iqtisodiyot instituti, Qarshi sh., O‘zbekiston

*Annotatsiya.* Maqolada milliy iqtisodiyot rivojlanishida xususiy tadbirkorlikni tutgan o‘rni, kichik va o‘rta biznesning raqobatbardoshligini oshirishda raqamli iqtisodiyotning mohiyati va mazmuni yoritilgan. Shuningdek, ularni ilm-fan va oliv ta’lim integratsiyasi va zamonaviy texnologik taraqqiyotning ichki va tashqi omillar bilan uzbviy bog‘liqlikda rivojlantirishga oid takliflar ilgari surilgan.

**Kalit so‘zlar:** xususiy tadbirkorlik, kichik va o‘rta biznes, raqobatdoshlik, menejment, raqamli iqtisodiyot, innovatsiya, raqamli tadbirkorlik, raqamlashtirish, raqobatdoshlik muhiti.

УДК:338.242.2

## ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УПРАВЛЕНИЯ МАЛЫМ И СРЕДНИМ БИЗНЕСОМ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ

**Турсунов Имомназар Эгамбердиевич** – кандидат экономических наук, профессор,  
**Насруллаев Феруз Менглиевич** – самостоятельный соискатель  
**Бозоров Самар Сафарович** – самостоятельный соискатель

Каршинский инженерно-экономический институт, г. Карши, Узбекистан

*Аннотация.* В статье освещена роль, сущность и значение цифровой и инновационной экономики в повышении конкурентоспособности частного предпринимательства, малого и среднего бизнеса. Также были выдвинуты предложения по их развитию в связи с интеграцией науки и высшего образования и внутренними и внешними факторами технологического развития.

**Ключевые слова:** частное предпринимательство, малый и средний бизнес, конкурентоспособность, менеджмент, цифровая экономика, инновации, цифровое предпринимательство, цифровизация, конкурентная среда.

UDC: 338.242.2

## WAYS TO IMPROVE THE MANAGEMENT OF SMALL AND MEDIUM BUSINESSES IN THE DIGITAL ECONOMY

**Tursunov Imomnazар Egamberdievich** – candidate of economic sciences, professor  
**Nasrullayev Feruz Mengliyevich** - independent researcher  
**Bozorov Samar Safarovich** – independent researcher

Karshi Engineering-Economics Institute, Karshi city, Uzbekistan

**Abstract.** The article describes the role, essence and significance of the digital and innovative economy in increasing the competitiveness of private entrepreneurship, small and medium-sized businesses. Also, proposals were put forward for their development in connection with the integration of science and higher education and internal and external factors of technological development.

**Key words:** private entrepreneurship, small and medium business, competitiveness, digital and innovative economy, innovation, digital entrepreneurship, digitalization, competitive environment.

## Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta’kidlaganidek: “...raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko‘p mablag‘ va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo‘lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz? Ertaga juda kech bo‘ladi. Shu bois, raqamli iqtisodiyotga faol o‘tish – kelgusi 5 yildagi eng ustivor vazifalarimizdan biri bo‘ladi. Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi” [1].

Ayniqsa, raqamli iqtisodiyotning xususiy tadbirkorlik, kichik va o‘rta biznes korxonalari faoliyatiga joriy etilishi natijasida jamiyat farovonligi darajasining keskin oshirilishiga imkon yaratiladi. Yangi turdagи innovatsion va raqamli dasturiy ta’milot xizmatlari yoki mahsulotlarning paydo bo‘lishi biznes-jarayonlarni qayta qurish, biznes-modellarning o‘zgarishi, marketingni boshqarish tizimlariga va iste’molchilar nuqtai nazarining o‘zgarishiga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 sonli Farmoniga asosan “Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish zarurligi” maqsad qilib belgilab olingan [2].

Yuqorida holatlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda an’anaviy jarayonlar bilan birga innovatsion rivojlanish jarayonlariga ham e’tibor qaratish maqsadga muvofiqligi ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, xususiy tadbirkorlik, kichik va o‘rta biznes rivojidagi o‘zgarishlar, ularning innovatsion va raqamlashtirish muhitiga moslashuvchanligi, biznes-jarayonlar va biznes-modellarning o‘zgarishi hamda innovatsion va raqamli iqtisodiyot o‘rtasidagi o‘zarotishlarning ijobjiy jihatlarni o‘zlashtira olishi kabilar hozirda har qachongidan ham dolzarbdir.

Bugungi kunda, milliy iqtisodiyotimiz taraqqiyotiga va biznes rivojiga ta’sir qiluvchi yaqinlashib kelayotgan beqarorlikka qarshi kurashish mexanizmlarini topish juda muhimdir, chunki sanksiyalarning Rossiya iqtisodiyotiga ta’siri butun, uning ta’siri doirasidagi barcha iqtisodiy makoniga ta’sir qiladi. Rossiya texnologiya importiga qarshi sanksiyalar mahalliy ishlab chiqarishga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda, aholining ishbilarmonlik faolligini pasaytirmoqda. Bu O‘zbekistonga bevosita ta’sir qiladi, chunki Rossiya mamlakatimizning tashqi savdodagi faoliyatida birinchi o‘rinda turadi [3].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoniga 2-ilova “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi hamda “Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 9-noyabrdagi PF-244-son Farmoniga muvofiq tadbirkorlarning zamonaviy faoliyat yuritishiga to‘sinqlik qilayotgan talablar qayta ko‘rib chiqilib, bir qator yangilliklar joriy qilindi.

Xususan, tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish vositalaridan: davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, litsenziyalash va ruxsat berish, texnik tartibga solish, tarif va notarif tartibga solish, majburiy sug‘urta, davlat nazorati, raqobatni himoya qilish va javobgarlik o‘rnatildi. Dasturning maqsadlarida raqamli iqtisodiyotni asosiy “drayver” sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirish belgilangan, shuningdek, iqtisodiyotga innovatsiyalarini keng joriy qilish, sanoat korxonalari va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish ko‘rsatib o‘tilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Iqtisodiyotning milliy raqobatdoshiligi evolyutsiyasining globallashuviga oid E.V.Drobotning, pandemiya sharoitida xorijiy davlatlar, shu jumladan, Rossiya iqtisodiyoti real sektorining raqobatdoshligi borasida T.A.Malishevning, xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznes borasida V.V.Pechatkin va L.M.Vildanova larning ilmiy ishlari raqobatdoshlik va raqamlashtirish o'zaro bog'liqligi, innovatsion texnologiyalarni qo'llash asosida uzoq muddatli iqtisodiy o'sish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, yangi ish o'rnlari yaratish hamda barqaror daromadga erishish bilan bog'laydilar [4].

Rossiya fanlar akademiyasi professori R.V.Meshryakov fikricha "raqamli iqtisodiyot" tushunchasiga ikki xil yondashuv mavjud: birinchisi klassik yondashuvda – raqamli iqtisodiyot raqamli texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyotdir, shu bilan birga bu elektron tijorat (tovarlar, xizmatlar) yo'naliishi bilan ham tasniflanadi. Ikkinchisi keng yondashuvda – raqamli iqtisodiyotni raqamli texnologiyalardan foydalangan holda iqtisodiy ishlab chiqarish sifatida qaraladi [5].

Tadbirkorlik faoliyati barqaror rivojlanishining innovatsion jihatlari jahonda ko'plab munozara mavzusiga aylandi. Mavjud tajriba shuni ko'rsatadiki, ilg'or mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi barqaror rivojlanish afzalliklarini ro'yobga chiqarish bosqichida turibdi, rivojlangan innovatsion tuzilmaga ega samarali ta'lim tizimi va innovatsion faoliyatni huquqiy jihatdan ta'minlagan. Global innovatsiyalar indeksida rivojlangan mamlakatlar etakchilik qilishi bejiz emas. Ushbu reytingda O'zbekiston 2022-yilda o'z mavqeini yaxshiladi va Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasida 3-o'rinni egalladi, umumjamoa hisobida 82-o'rin va Markaziy Osiyoda 1-o'rinni egalladi.

Bizning fikrimizcha, innovatsiyalar joriy qilish va rivojlantirish istiqbollari birinchi navbatda sanoat sohasida tarkibiy, texnik, texnologik va mahsulot sifat o'zgarishlarini, shuningdek, xalqaro hamkorlik jarayonlarini amalga oshirishda davlat-xususiy sheriklik harakatlarini birlashtirishdan iborat bo'lishi lozim [6].

Belorusiya fanlar akademiyasi professorlari I.I.Gancheryonok, N.N.Gorbachev va I.E.Tursunovlarning fikricha raqamli iqtisodiyot sharoitida zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy maqsadini har qanday strategik muammolarni hal qilish va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni optimal boshqarishni amalga oshirish bo'yicha qarorlar qabul qilish imkonini beradigan darajada axborot texnologiyalari tizimini yaratish bilan bog'lashadi. Raqamli axborot texnologiyalarini rivojlantirishning eng ommabop va keng tarqalgan texnologik vositasi Internet deb hisoblashadi [7].

### Tadqiqot metodologiyasi

Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznes korxonalarida fan, oliy ta'lim hamkorligi hissasini oshirish, ilmiy hajmdor texnologiyalar, innovatsiyalar va raqamlashtirish asosida mavjud holatni yuksaltirish va tartibga solish bo'yicha mavjud yondashuvlarni statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraktsiyalash, ma'lumotni guruhlash, analiz va sintez, induktsiya va deduktsiya usullaridan keng foydalanilgan.

### Tahlil va natijalar

Ilmiy tadqiqotlar sharhi ko'rsatishicha raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, ularning an'anaviy biznesga kirib borishi, raqamli mahsulot va xizmatlarning yangi turlarini paydo bo'lishi, onlayn-kanallardan ommaviy foydalanish, biznes-jarayonlarni qayta qurish, biznes-modellarni transformatsiyasiga, marketing tizimini boshqarish hamda iste'molchi xatti-harakatlarini o'zgarishiga olib keladi.

Bugungi kunda, elektron biznesdan foydalanish odatda ikkita yo'naliishda amalga oshiriladi: yangi biznesni yaratish yoki faoliyatni kengaytirish maqsadida yoki mavjud elektron biznes faoliyatini kengaytirish uchun axborot texnologiyalarini joriy etish. Elektron biznes to'rtta asosiy yo'naliishlardan iborat: elektron tijorat; internet xizmatlari; internet xizmatlar kontenti; elektron firmalar biznes faoliyati.

Tadbirkorlik sohasida innovatsion ishlanmalar, shu jumladan, raqamli texnologiyalarni joriy etilishi iqtisodiy rivojlanishni yangi bosqichga ko'tarishda quyidagilar muhim ahamiyat kasb etadi:

- tadbirkorlik subyektlari tomonidan tijorat banklarining kreditlari bo'yicha kafillik, shuningdek, foiz xarajatlarini qoplash uchun kompensatsiya olish maqsadida onlayn buyurtmanomalar topshirish;


- topshirilgan buyurtmanomalarining "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi" tomonidan tezkor onlayn ko'rib chiqish;

- tijorat banklarining kreditlari bo'yicha, elektron raqamli imzodan foydalangan holda, kafillik, shuningdek, foiz xarajatlarini qopplash uchun kompensatsiya berish to'g'risida elektron shartnomalar tuzish;

- tijorat banklari va ularning mijozlariga Jamg'armaning rasmiy veb-sayti va SMS-xabarnoma orqali real vaqt rejimida buyurtmalarni ko'rib chiqish va ularning ijrosi holatini kuzatish.

Yuqorida kabi ijobjiy jarayonlar, barcha hududlarda xizmatlarni boshqarish, ijtimoiy soha obyektlari, ishlab chiqarish, yo'l transport, kommunal infratuzilma kabi 40 dan ortiq sohalar bo'yicha ma'lumotlarning integratsiyalashgan axborot muhitini tashkil etish orqali real vaqt rejimida ma'lumotlarning tahlilini yuritish va tezkor qarorlarni qabul qilish maqsadida geoportallarni tashkil etishga oid "yo'l xarita" ishlab chiqilgan.

Kichik biznes subyektlarining YIM hajmidagi ulushi 2022-yilda 54,9%ni tashkil etgan (1-rasm).



1-rasm. 2019-2023 yillarda xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesning YIM hajmida ulushi


Bugungi kunda, amalga oshirilayotgan izlanishlar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekistonda tadbirkorlikni yanada rivojlantirish innovatsion-ishlab chiqarish klasterini yaratish yo'li bilan klaster elementlari sifatida oliy ta'lim muassasalari va uning hududlardagi bo'linmalarini ham qo'shgan holda innovatsiyalarni qo'llash asosda amalga oshirilishi kerak. Tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari ko'p jihatdan mamlakatning ilmiy-texnikaviy rivojlanish bo'yicha uzoq muddatli strategiyasi mazmuni va xususiy, shu jumladan virtual tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari bilan belgilanadi. Aynan virtual tadbirkorlik, o'z navbatida, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlar rivojlanishini ta'minlash, hunarmandlar, yakka tartibdagi fermerlar, kichik tadbirkorlar uchun zamонавији jihozlar yaratish, mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirish imkonini beradi.

Tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari ko'p jihatdan mamlakatning ilmiy-texnikaviy rivojlanish bo'yicha uzoq muddatli strategiyasi mazmuni va virtual tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari bilan belgilanadi. Aynan virtual tadbirkorlik, o'z navbatida yuqori

texnologiyali ishlab chiqarishlarni yo'lga qo'yish va rivojlanishini taminlash, hunardmanlar, fermerlar va tadbirkorlar uchun zamonaviy uskunalar yaratish, mamlakat eksport salohiyatini oshirish imkonini beradi [8].

Yangi O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanish bosqichida xizmatlar sohasini jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvarda qabul qilingan "Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-104- son qarori sohada kichik biznes korxonalari va mikrofirmalarni imtiyozli kreditlash, imtiyozli soliq stavkalarini joriy etish, yangicha xizmat turlarini tashkil etish yuzasidan infrastrukturalarni yaxshilash hamda tadbirkorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali xizmatlar hajmini yanada kengaytirish uchun rag'bat bo'lmoqda. Mamlakatda 2019-2023 yillarda xizmatlar sohasini asosiy ko'rsatkichlari 2-rasmda keltirilgan [9].

## **XIZMATLAR SOHASINI ASOSIY KO'RSATKICHLARI**



2-rasm. 2019-2023 yillarda xizmatlar sohasini asosiy ko'rsatkichlari

### **Xulosa va takliflar**

Mamlakatning raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik va o'rta biznes raqobatdoshligini oshirish, biznes tuzilmalardagi innovatsiyalarning roli, ahamiyatini teran anglanishi va raqobatbardoshlikka yo'naltirilgan maqsadli faoliyat, ilmiy hajmdor texnologiyalar, ishlanmalar va tajriba-konstrukturlik ishlarituzilmalari, prognozlashtirish va tahliliy departamentlar, texnopark yoki texnologiyalar transferi agentliklari yo'lga qo'yilishi bilan kechadi.

Bizning fikrimizcha, raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik va o'rta biznes boshqaruvini takomillashtirishda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- raqamli iqtisodiyot bo'yicha ilg'or xalqaro tajribani o'rgangan holda innovatsion, raqamli, shu jumladan, sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llanilishi, raqamli transformatsiya darajalari, raqamli tadbirkorlik holatini tahlil qilish, rivojlanishga to'sqinlik qiluvchi tizimli muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish hamda bu boradagi davlat siyosati yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

- raqamli tadbirkorlik ekotizimi, uning moliyaviy mexanizm va instrumentlarini takomillashtirish, startaplarni qo'llab-quvvatlashning yaxlit tizimini ishlab chiqish, muqobil investitsiyalar, jumladan, venchur moliyalashtirish, venchur fondlarining iqtisodiy-huquqiy munosabatlarini tartibga solish uchun shart-sharoit yaratishga qaratilgan siyosatni belgilanishi hamda amalga oshirilishini muvofiqlashtirish;

- kichik va o'rta biznes korxonalarida fan, oliy ta'lim hamkorligi hissasini oshirish, ilmiy texnologiyalar, innovatsiyalar va raqamlashtirish;

- hududlarda sohalararo ichki va tashqi integratsiyani kuchaytirib, innovatsion, investitsion jarayonlarni jadallashtirish, mavjud ilmiy salohiyat, axborot resurs markazlarining ilmiy zahiralardan samarali foydalanishni tashkil etish, texnoparklarni rivojlantirish;

- raqamli inklyuzivlik, raqamli texnologiyalar bo'yicha hududlar va aholi qatlamlari o'rtasida farqni kamaytirish, raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatini oshirish va bir xillashtirish, aholining raqamli bilimlarini kuchaytirishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini muvofiqlashtirish;

- raqamli va innovatsion iqtisodiyot, raqamli tadbirdorlikni rivojlantirishning prognozlarini bajarilishini tahlil qilish.

## Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so'zi, 24.01.2020-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli Farmoni.
3. Солодовников С.Ю., Турсунов И.Э. Факторы и риски управления перехода к сетевым механизмам в условиях цифровой экономики. Инновационная технология / Научно-технический журнал. DOI: <http://qmii.uz/wpcontent/uploads/2022/04/1>.
3. Сазанова А.Н. Конкурентоспособность малого и среднего предпринимательства: сущность, пути повышения, взаимосвязь с теневой экономикой. <https://scienceforum.pu/2022/article/2018029037>.
4. Дудин М.Н. Цифровое предпринимательство в сфере услуг и торговом секторе: сущность, цели, задачи, оценка экономических выгод. Mail/ru/jurnal/(27.07.2019) <https://unecdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000374566>.
5. Сидоров В.А., Турсунов И.Э., Шарипов Т.С. Экономика инноваций: проблема технологического прорыва."Сервис"/Научно-технический журнал. 2020, №4, С.22-23.
6. Сидоров В.А., Турсунов И.Э. Бизнес инноваций: проблема отчуждения труда. Инновационная технология / Научно-технический журнал. DOI: <http://qmii.uz/wpcontent/uploads/2020/01/1>.
7. Ганчёронок И.И., Горбачев Н.Н., Турсунов И.Э. Цифровая экономика: управление информационными ресурсами. Учебное пособие. Т.: ИД «Ворис», 2020. 104 с.
8. Турсунов И.Э., Рахимова Д.О. Развитие виртуального предпринимательства на основе цифровой экономики. Журнал "Экономикс" № 1 (48), 2021 Российский импакт-фактор: 0,21 48 (1), 14-19
9. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2019 - 2023 yillarda O'zbekiston Respublikasining ilmiy-texnikaviy salohiyati va innovatsiyalar rivojlanishining asosiy ma'lumotlari.